



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2026, Issue 5.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



RASMLAR ASOSIDA BOLALARNING SO‘Z BOYLIгинI OSHIRISH

Mamadaliyeva Dildoraxon A‘zamjon qizi

Qo‘qon universiteti Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 1-24 guruh talabasi
mamadaliyevadildora300@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda rasmlar asosida bolalarning so‘z boyligini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslari, metodik yondashuvlari hamda amaliy samaradorligi keng yoritiladi. Zamonaviy ta‘lim tizimida bolalarning nutqini rivojlantirish, xususan, ularning lug‘at boyligini kengaytirish muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim bosqichlarida bolalar ko‘proq ko‘rish orqali idrok etish xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli, vizual materiallardan foydalanish samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Shu jihatdan rasmlar asosida o‘qitish bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rasmlar bolalarning e‘tiborini jalb etuvchi, ularni faol fikrlashga undovchi va ta‘lim jarayoniga qiziqishini oshiruvchi didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Tasviriy materiallar yordamida bolalar predmetlar, hodisalar va ularning belgilarini kuzatadi, ularni nomlaydi hamda mazmunini tushunishga harakat qiladi. Bu jarayon orqali yangi so‘zlar oson o‘zlashtiriladi va bolalarning lug‘at boyligi izchil kengayadi. Shu bilan birga, rasm asosida olib boriladigan mashg‘ulotlar bolalarda bog‘lanishli nutqni rivojlantirish, gap tuzish, fikrni izchil bayon etish va nutqiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kirish so‘zlar: so‘z boyligi, vizual ta‘lim, rasmlar, nutq rivoji, maktabgacha ta‘lim, kommunikativ kompetensiya, tasviriy metod.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, bilan birga tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida qator vazifalarni belgilab berdi.

Belgilangan vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom, jismoniy barkamol va har tomonlama rivojlanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishini inobatga olgan holda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida yozgi sog‘lomlashtirish va chiniqtirish ishlarini samarali tashkil etilishiga alohida e‘tibor berish zarur.[1]

Boshlang‘ich maktabda o‘qitish ko‘p fanli bo‘lsa ham, asosiy o‘rin tilga tegishlidir. Til insoniyat jamiyatining ma‘naviy hayotida obyektiv mavjud bo‘lgan hodisadir. Unda avvalgi avlodlar tomonidan yaratilgan eng buyuk hayotiy qadriyatlar jamlangan. Tilni o‘zlashtirish — bu avlodlararo bog‘liqlik, ko‘plab avlodlarning ma‘naviy merosini egallashdir. Til ta‘limi dunyoqarashni shakllantiradi, insonni ijtimoiy hayotga jalb qiladi, bilish faoliyatining eng mukammal vositasini taqdim etadi. Til eng muhim muloqot vositasi, tafakkur faoliyati va ongli ravishda his-tuyg‘ularni ifodalash vositasi sifatida insonning og‘zaki va yozma nutq faoliyatining asosi hisoblanadi. Ratsional bilish tildan

foydalangan holda amalga oshiriladi va insoniyat hamda har bir xalq tomonidan to'plangan ulkan axborot boyligi til birliklari orqali yangi avlodlarga yetkaziladi. Tilni o'zlashtirish orqali bola o'z bilim doirasini cheksiz kengaytiradi, insoniyat tomonidan erishilgan bilimlar darajasiga yaqinlashadi, shaxsiy tajribasini mustahkamlash va uni atrofdagilarga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ilmiy manbalarga ko'ra, vizual ma'lumotlar orqali berilgan ta'lim 60–80% samaraliroq. R. Mayer tadqiqotlariga ko'ra, multimodal taqdimotlar bolalarda muloqot malakalarini 30% dan ortiq rivojlantirgan. Yevropa Ittifoqi loyihasida ishtirok etgan bolalarning so'z boyligi 35% oshgani aniqlangan. O'zbekiston tajribasida ham shunga o'xshash natijalar kuzatila boshlagan. Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida vizual texnologiyalardan maqsadli va tizimli foydalanish uchun maxsus metodik qo'llanmalar yaratish;

2. Tarbiyachilar va pedagoglar uchun vizual vositalarni qo'llash bo'yicha treninglar tashkil etish;

3. Xorijiy ilg'or tajribalarni milliy ta'lim muhitiga moslashtirgan holda joriy etish;

4. Vizual texnologiyalar ta'sirini baholash uchun monitoring va diagnostika metodlarini joriy qilish;

5. Ilmiy tadqiqotlar va pilot loyihalar orqali vizual yondashuvlarning samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish. Shunday kilib, vizual texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tizimida samarali joriy qilish bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama, jumladan nutqiy jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Visual texnologiyalar bolalarning nutqiy va muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida o'zini oqlamoqda. Xorijiy tajriba buni tasdiqlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sog'lomlashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish yozgi sog'lomlashtirish davri (iyun-avgust)da amalga oshiriladi. Aynan, yoz faslida bolalarning ochiq havoda ko'proq sayr qilishlari, tanasini chiniqtirish, harakatda bo'lish va salomatligini mustahkamlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qulay va zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, yozda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan barcha tadbirlarni yengillashtirish, qiziqarli va yorqin o'tishini ta'minlash, charchoqyozdi mashqlar, turli ko'ngilochar tadbirlarni muntazam uyushtirish, kichik sayrlarni tashkillashtirish, ijodiy va amaliy ishlarni bajartirish, suv muolajalarini o'rinli qo'llash va alohida belgilangan kun tartibiga qat'iy amal qilish tavsiya etiladi.[2]

Mazkur yondashuv doirasida rasmiy materiallar bilan ishlashning samarali metodlari alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Xususan, rasmni tavsiflash metodi bolalarda kuzatuvchanlik, tafakkur faolligi va nutqiy ifodalash ko'nikmalarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metod orqali bolalar tasvirda aks etgan obyekt va hodisalarni aniqlaydi, ularning belgi va xususiyatlarini tahlil qiladi hamda ularni so'z vositasida ifodalashga o'rganadi. Bu jarayon



bolalarning lugʻat boyligini kengaytirish bilan birga, ularning semantik tafakkurini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Savol-javob asosidagi metod esa oʻquv jarayonida interfaollikni taʼminlovchi muhim vositalardan biri sifatida namoyon boʻladi. Mazkur metod bolalarning mustaqil fikrlash faoliyatini ragʻbatlantirib, ularni tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarishga undaydi. Oʻqituvchi tomonidan berilgan yoʻnaltiruvchi savollar bolalarning nutqiy faolligini oshirib, ularning fikrini aniq, mantiqiy va izchil bayon etishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, bu metod bolalarda muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Rasm asosida hikoya tuzish metodi bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda alohida oʻrin tutadi. Ushbu metod orqali bolalar tasvir asosida voqealar ketma-ketligini tiklaydi yoki yangi mazmun yaratadi, bu esa ularning tasavvur doirasini kengaytiradi. Hikoya tuzish jarayonida bolalar yangi soʻzlarni oʻzlashtiribgina qolmay, balki ularni kontekstual ravishda toʻgʻri qoʻllash koʻnikmasini ham egallaydi. Natijada bogʻlanishli nutq rivojlanadi, grammatik jihatdan toʻgʻri va mazmunan boy gaplar tuzish malakasi shakllanadi.

Shuningdek, bir nechta rasmlarni taqqoslash metodi bolalarda tahliliy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metod orqali bolalar oʻxshash va farqli jihatlarni aniqlaydi, umumlashtirish va tizimlashtirish koʻnikmalarini egallaydi. Bu esa nafaqat nutq rivojiga, balki ularning bilish faoliyatining boshqa jihatlariga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Rasmlar asosida tashkil etilgan taʼlim jarayonining samaradorligi pedagogik kuzatishlar va amaliy tajribalar orqali tasdiqlanadi. Bunday mashgʻulotlarda bolalarning oʻquv faoliyatiga qiziqishi sezilarli darajada ortadi, ular jarayonda faol ishtirok etadi va yangi bilimlarni tez hamda samarali oʻzlashtiradi. Ayniqsa, vizual materiallarning mavjudligi bolalarning eʼtiborini jamlashga yordam beradi, bu esa oʻz navbatida oʻquv materialining yaxshiroq oʻzlashtirilishini taʼminlaydi. Natijada bolalarning nutqi ravonlashadi, soʻz boyligi sezilarli darajada kengayadi hamda oʻz fikrini aniq, erkin va izchil ifodalash qobiliyati shakllanadi. Shu bilan birga, rasmi materiallar bilan ishlash bolalarning tasavvurini boyitadi, ularning ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Bu jarayon bolalarning umumiy intellektual rivojiga ijobiy taʼsir koʻrsatib, ularni keyingi taʼlim bosqichlariga tayyorlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy tahlillar shuni koʻrsatadiki, rasmlar asosida oʻqitish bolalarning soʻz boyligini oshirish, nutqiy faolligini rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu metod bolalarning yosh xususiyatlariga mos kelib, ularning koʻrish orqali idrok etish, tafakkur qilish va tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada bolalarda yangi soʻzlarni oʻzlashtirish, ularni nutqda oʻrinli qoʻllash hamda fikrni aniq va izchil bayon etish koʻnikmalari shakllanadi.

Shu bilan birga, rasmlar asosida tashkil etilgan taʼlim jarayoni bolalarning oʻquv faoliyatiga qiziqishini oshiradi, ularning mustaqil fikrlashini va ijodiy

yondashuvini rivojlantiradi. Bunday mashg'ulotlar bolalarning nafaqat nutqiy, balki umumiy intellektual rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaliyotda ushbu metoddan foydalanishda ayrim muammolar, jumladan, rasmi materiallardan foydalanishning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, metodik yondashuvlarning bir xilda qo'llanilmasligi va zamonaviy vositalardan foydalanish darajasining pastligi kuzatiladi. Bu esa kutilgan natijalarga erishishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun rasmi materiallardan foydalanishni aniq pedagogik maqsad asosida tashkil etish, mashg'ulotlarni tizimli va izchil rejalashtirish hamda ularni bolalarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, interaktiv va multimediya vositalaridan foydalanish orqali mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish mumkin. Bundan tashqari, rasm asosida nutqni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar va didaktik o'yinlardan foydalanish bolalarning nutqiy faolligini yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, rasmlar asosida o'qitish metodini ilmiy asosda tashkil etish va amaliyotga keng joriy etish bolalarning so'z boyligini oshirish hamda nutqiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yondashuvni takomillashtirish va tizimli ravishda qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2017.
3. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
4. Qodirova F., Toshpo'latova N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Nurmatova M. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Sodiqova Sh. Maktabgacha ta'lim metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2018.